



KODLAR ARALASHUVI: BIR KOD TASARRUFIDAN IKKINCHI KOD  
TASARRUFIGA O'TISH

**Sarimsoqova Sevinch Nizomiddin qizi**

*Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti*

*4-bosqich talabasi*

**ANNOTATSIYA;** *Ushbu maqola kodlar aralashuvi hodisasini ilmiy jihatdan tahlil qiladi. Kodlar aralashuvi — so'zlovchining bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o'tishi, ya'ni bir til yoki til subkodidan boshqasiga o'tish jarayonidir. Maqolada kodlar aralashuvining ijtimoiy, kommunikativ va tilshunoslik kontekstidagi mohiyati, uning sabablari va turlari batafsil yoritilgan. Kodlar aralashuvi nutqning kommunikativ samaradorligini oshirish, ijtimoiy vaziyatga moslashuvchanlikni ta'minlash va tillararo o'zaro ta'sirni ko'rsatish imkoniyatini beradi. Maqola nazariy va amaliy jihatdan tilshunoslik, ijtimoiy lingvistika tadqiqotlari uchun foydali bo'lib, kodlar aralashuvining jamiyat va individual bilingvizmdagi ahamiyatini ochib beradi.*

**Kalit so'zlar:** *kodlar aralashuvi, kommunikativ vaziyat, code-switching, til subkodi.*

**ANNOTATION:** *This article provides a scholarly analysis of the phenomenon of code-switching. Code-switching refers to the process in which a speaker shifts from one code to another, that is, from one language or language subcode to another. The article thoroughly examines the social, communicative, and linguistic aspects of code-switching, its causes, and types. Code-switching enhances the communicative efficiency of speech, ensures adaptability to social situations, and demonstrates interlingual interaction. The study is theoretically and practically valuable for linguistics and sociolinguistic research, highlighting the significance of code-switching in both society and individual bilingualism.*

**Keywords:** *code-switching, communicative situation, language subcode.*

**АННОТАЦИЯ:** *В данной статье представлен научный анализ феномена код-свичинга (переключения кодов). Код-свичинг — это процесс, при котором говорящий переходит от одного языкового кода к другому, то есть от одного языка или подязыкового кода к другому. В статье подробно рассматриваются социальные, коммуникативные и лингвистические аспекты код-свичинга, его причины и типы. Переключение кодов повышает коммуникативную эффективность речи, обеспечивает адаптивность в социальных ситуациях и демонстрирует межъязыковое взаимодействие. Исследование имеет теоретическую и практическую ценность для лингвистики и социолингвистических исследований, подчеркивая значимость код-свичинга в обществе и индивидуальном билингвизме.*

**Ключевые слова:** *код-свичинг, коммуникативная ситуация, языковой подкод.*

XX asrning 70-yillarida tilshunoslikda kodlar aralashuvi hodisasi keng e'tibor qozondi. Kodlar aralashuvi so'zlovchining bir til yoki til subkodidan boshqa til yoki subkodga o'tishi



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



jarayonini anglatadi. Bu hodisa nafaqat ikki yoki undan ortiq tilli jamiyatlarda, balki bir milliy tilning turli subkodlariga ega so‘zlovchilar orasida ham uchraydi. R. Yakobsonning fikricha, “Har qanday umumiy kod ko‘p shaklli bo‘lib, u xabarning vazifasi, adresat va suhbatdoshlari orasidagi munosabatga ko‘ra, so‘zlovchi tomonidan tanlanadigan turli subkodlarning hierarxik majmuiyidir.” Bu ta‘rif kodlar aralashuvining ijtimoiy va kommunikativ tabiatini aks ettiradi.

Kodlar aralashuvi tilshunoslikda bir necha jihatdan o‘rganilgan: Auer, Myers-Scotton, Poplac va Mc Cormick tadqiqotlarida kodlar aralashuvining turlari, sabablari, kommunikativ funksiyalari o‘rganilgan. Kodlar aralashuvi faqat til o‘rgatishda yoki akademik kontekstda emas, balki kundalik hayot, ish joyi va oilaviy muloqotlarda ham keng tarqalgan hodisa hisoblanadi.

Kodlar aralashuvi<sup>124</sup> (yoki bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o‘tish) ingliz tilidagi code-mixing (yoki code-switching) terminining tarjimasini bo‘lib, u XX asrning 70-yillarida ingliz tilshunosligida paydo bo‘lgan. Biroq mazkur termin ilmiy muomalaga kiritilishidan oldin bu hodisaga R. Yakobson e‘tibor qaratgan. Uning ta‘kidlashicha: “Har qanday umumiy kod ko‘p shaklli bo‘lib, u xabarning vazifasi, adresat va suhbatdoshlar o‘rtasidagi munosabatga ko‘ra so‘zlovchi tomonidan erkin tanlanadigan turli subkodlarning iyerarxik (pog‘onali) majmuasidan iborat”.

Ijtimoiy-kommunikativ tizimni tarkib toptiruvchi kodlar va subkodlar vazifalariga ko‘ra taqsimlangan bo‘ladi. Bu holat mazkur til jamoasini tashkil etgan ayni so‘zlovchilar kontingentining umumiy muloqot vositalari majmuasini muloqot sharoitidan kelib chiqqan holda qo‘llashini bildiradi. Masalan, adabiy til subkodlari haqida so‘z borganda, adabiy til egalari ilmiy faoliyatda ilmiy uslubdan, boshqaruv organlari yozishmalarida, ish yuritish va yurisprudensiyada rasmiy uslubdan, diniy marosimlarda esa diniy-tashviqot uslubidan foydalanish kerak bo‘ladi.

Boshqacha aytganda, so‘zlovchi muloqot sharoitidan kelib chiqqan holda bir til vositasidan boshqasiga o‘tadi. Shunga o‘xshash holat ikki yoki undan ortiq til qo‘llaniladigan jamiyatlarda ham kuzatiladi. Ikki yoki undan ortiq tilda so‘zlashuvchi shaxslar, odatda, bu tillarni muloqot sharoitiga ko‘ra “taqsimlaydilar”: rasmiy vaziyatlarda hokimiyat vakillari bilan bir tilda, kundalik hayotda — uyda, qo‘shnilar va boshqalar bilan esa ikkinchi tilda muloqot qiladilar. Bunday holatda ham bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o‘tiladi, faqat bu yerda kodlar birinchi misoldagidek tilning uslublari sifatida emas, balki turli tillar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

---

<sup>124</sup> Sh.Usmanova, N.Bekmuxamedova, D.Iskandarova. “Sotsiolingvistika” o‘quv qo‘llanma. “Universitet” nashriyoti.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Nutqiy muloqot<sup>125</sup> jarayonida so‘zlovchining kommunikatsiya sharoitidan kelib chiqqan holda bir tildan (yoki til variantlaridan, dialektdan, uslubdan) boshqa bir til ko‘rinishiga o‘tishi kodlar aralashuvi, ya’ni bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o‘tish deb ataladi.

Kommunikatsiya sharoitidagi qanday o‘zgarishlar so‘zlovchini bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o‘tishga majbur qiladi? Jumladan, adresatning almashinishi, ya’ni so‘zlovchi murojaat qilayotgan shaxsning o‘zgarishi kodlar aralashuviga sabab bo‘lishi mumkin. Agar adresat so‘zlovchi bilan ikki tildan faqat bittasini bilsa, shu paytgacha muloqotda bilingv (zullisonayn) suhbatdoshlar tomonidan boshqa til yoki har ikkala til qo‘llanilgan bo‘lsa ham, muloqot davomida adresatga tanish bo‘lgan tilga o‘tiladi.

Masalan, muallif (ta’kid bizniki — Sh. Usmanova) Indiana universitetida (AQSh) faoliyat olib borgan davrida vaziyatga qarab o‘zbek, rus va ingliz tillaridan foydalanishga majbur bo‘lgan. O‘zbeklar doirasida suhbat olib borilganda, tabiiyki, o‘zbek tili qo‘llanilgan. Agar suhbatga qozoq yoki qirg‘iz millatiga mansub shaxslar qo‘shilgan bo‘lsa, o‘z-o‘zidan rus tiliga o‘tilgan (chunki qozoq yoki qirg‘iz tilini o‘zbeklar tushunishi mumkin, biroq o‘zbek tilini qozoq, qirg‘iz va boshqa tillar egalari to‘liq anglamaydi). Yoki suhbat rus tilida olib borilayotgan bir paytda unga amerikalik shaxs qo‘shilsa, ingliz tilidan foydalanishga to‘g‘ri kelgan.

Muloqotga kirishuvchilar sonining o‘zgarishi ham kodlarning almashuviga sabab bo‘ladi. Bunday holat ikki bilingv shaxs suhbatiga faqat bitta tilni biladigan uchinchi shaxs qo‘shilganda yuz beradi.

So‘zlovchi rolining o‘zgarishi ham kodlar aralashuvini keltirib chiqaruvchi omillardan biri bo‘lishi mumkin. Masalan, Toshkent shahrida yashovchi ota yoki ona rolidagi xorazmlik so‘zlovchi oilada yoki hamyurtlari bilan muloqot chog‘ida Xorazm shevasida so‘zlashadi, biroq ish joyida, boshqaruv organlariga murojaat qilganda, hatto kundalik hayotda ham adabiy tilning me’yoriy shakllaridan birini qo‘llashga majbur bo‘ladi. Aks holda, bunday shaxs ish joyidagi hamkasblari yoki rasmiy muhit vakillari tomonidan to‘liq tushunilmasligi mumkin. Boshqaruv organlari vakillari bunday nutqni tushunmaydi va natijada so‘zlovchilar o‘z maqsadlariga (ariza yoki shikoyatining ko‘rib chiqilishiga) erisha olmaydilar, ya’ni kommunikativ muvaffaqiyatsizlikka uchraydilar. Muloqot mavzusi ham kodlarning tanlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, tilshunos olim lingvistik fanlar doirasida ma’ruza qilganda yoki mutaxassislar bilan ilmiy munozara olib borganda lingvistik terminlardan tarkib topgan ilmiy uslubdan foydalanadi. Biroq mavzu kundalik maishiy hayotga o‘tganda, boshqa subkodga o‘tish yuz beradi.

---

<sup>125</sup> Sh.Usmanova, N.Bekmuxamedova, D.Iskandarova. “Sotsiolingvistika” o‘quv qo‘llanma. “Universitet” nashriyoti. Toshkent -2014.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Insonning kodlarni almashtirish qobiliyati uning tilni (yoki til subkodlarini) yuqori darajada egallaganini, shuningdek, muayyan kommunikativ salohiyati va madaniyat darajasini ko‘rsatadi. Kodlarning aralashuvi mexanizmi kishilar o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni va nutqiy muloqot jarayonining qulayligini ta‘minlaydi. Aksincha, individning muloqot sharoitiga mos ravishda o‘z nutqini taqsimlay olmasligi anomaliya sifatida baholanib, kommunikativ to‘qnashuvlarga olib kelishi mumkin.

Kodlar aralashuvining ikki asosiy turi mavjud: Kodlarning vaziyatli aralashuvi. Bunda til yoki tilning mavjud shakllarini tanlash rasmiy va norasmiy vaziyatlarga bog‘liq bo‘ladi.

Kodlarning metaforik aralashuvi.<sup>126</sup> Bu holat ijtimoiy vaziyatning to‘liq o‘zgarishini emas, balki uning ayrim unsurlarining o‘zgarishini — mavzuning almashuvi, muloqotchilar o‘rtasidagi ijtimoiy-kommunikativ to‘siqlarni bartaraf etish yo‘nalishining o‘zgarishini taqozo etadi.

Bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o‘tish deganda so‘zlovchining bir tildan (yoki til subkodlaridan) boshqa bir tilga to‘liq o‘tishi tushuniladi. Bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o‘tishning badiiy adabiyotdagi yorqin namunasi sifatida L. N. Tolstoyning “Urush va tinchlik” romanida rus zodagonlari nutqida rus tilining fransuz tiliga (yoki aksincha) almashib borishini ko‘rsatish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam kodlar aralashuvi — nutqiy muloqot jarayonida bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o‘tish hodisasi deyiladi. Ushbu jarayon nafaqat ikki yoki undan ortiq tilli jamiyatlarda, balki bir milliy tilning turli subkodlariga ega so‘zlovchilar orasida ham kuzatiladi. Kodlar aralashuvi kommunikativ vaziyatga moslashish, adresat, mavzu, nutqning funksiyasi va so‘zlovchi roliga bog‘liq ravishda sodir bo‘ladi. Kodlar aralashuvi tilshunoslar tomonidan turli jihatdan o‘rganilgan bo‘lib, uning asosiy turlari — vaziyatli va metaforik aralashuv turlari mavjud.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.Usmanova, N.Bekmuxamedova, D.Iskandarova. “Sotsiolingvistika” o‘quv qo‘llanma. “Universitet” nashriyoti. Toshkent -2014.
2. D.Elova, G.Safarova “Sotsiolingvistika” o‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent-2021.
3. Abduvali Berdialiyev, Mo‘minjon Turdibekov “sotsiolingvistika” darslik. “Nodirabegim” nashriyoti. Toshkent-2022.
4. Abduvali Berdialiyev. “O‘zbek sinxron Sotsiolingvistikasi”. Toshkent-2019.
5. Zarif Aliqulov, Saodat Boymirzayeva. “Sotsiolingvistika” Samarqand – 2009.
6. [https://www.oriens.uz/media/journalarticles/42\\_Boriyev\\_Islom\\_334-339.pdf](https://www.oriens.uz/media/journalarticles/42_Boriyev_Islom_334-339.pdf)

<sup>126</sup> D.Elova, G.Safarova “Sotsiolingvistika” o‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent-2021.